

## **JAZOIR MUSTAQILLIKKA ERISHGACH FRANSIYA BILAN ALOQALARI HAMDA MIGRATSIYAGA TA'SIRI**

**Sharofova Diyora Shavkat qizi**

TDSHU tayanch doktoranti

[Diyorasharofova33@gmail.com](mailto:Diyorasharofova33@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Jazoir 1962-yilda mustaqillikka erishdi va bu jarayonlar 1954-1962-yillargacha davom etgan milliy-ozodlik urushlari natijasida sodir bo'ldi. Jazoir mustaqillikka erishgach davlat boshqaruvi, siyosiy-iqtisodiy kabi bir qator sohalarda muammolarga duch keldi. 132 yillik mustamlaka davridagi yo'qotishlarni tiklash, ishsizlik, kambag'allik, urush vayronagarchiligi kabi muammolar bilan 80 foiz yevropaliklarni va 30 foiz jazoirliklarni chiqib ketishi ro'y berdi. Ushbu chiqib ketgan aholining katta qismi oliy ma'lumotli bo'lib, texnik xodim, o'qituvchi, shifokor, muhandis va kichik tadbirkorlardan iborat, ular o'zlari bilan olib ketish ilojisi bo'lgan texnika, jihoz, kapital va qimmatli hujjatlarni olib ketgan. Jazoirning tadbirkor, intellektual soha vakillaridan iborat fuqarolarining 90 foizi yurtni tark etdi. Jazoir mustaqilligining ilk yillarida yuzaga kelgan ushbu muammolar sababli hukumat migratsiyani qo'llab quvvatladi. Migrantlar hamda ishchi muhojirlarning pul aylanmalari iqtisodiy qiyinchilikdagi yechim sifatida ko'rildi. Jumlada, mustaqillikdan keyin Jazoir dan migratsiya qiladigan aholining hamda xorijiy pul jo'natmalarining miqdorida o'sish kuzatildi.*

**Kalit so'zlar:** migratsiya, nazorat, havfsizlik, hamkorlik, mehnat shartnomalari, faoliyat muddatlari, ruhsatnoma, guvohnomalar.

## **ОТНОШЕНИЯ АЛЖИРА С ФРАНЦИЕЙ ПОСЛЕ ОБРЕТЕНИЯ НЕЗАВИСИМОСТИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА МИГРАЦИЮ**

### **АННОТАЦИЯ**

*Алжир получил независимость в 1962 году, и эти процессы стали результатом национально-освободительных войн, продолжавшихся с 1954 по 1962 год. После обретения независимости Алжир столкнулся с рядом проблем в государственном управлении, политике и экономике. Такие проблемы, как восстановление потерь 132 лет колониального правления, безработица, бедность и разрушения от войны, привели к исходу 80 процентов европейцев и 30 процентов алжирцев. Большинство из этих эвакуированных были высокообразованными людьми, включая техников, учителей, врачей,*

инженеров и мелких предпринимателей, которые взяли с собой все оборудование, технику, капитал и ценные документы, которые могли. 90 процентов граждан Алжира, включая предпринимателей и интеллигенцию, покинули страну. Из-за этих проблем, возникших в первые годы независимости Алжира, правительство поощряло миграцию. Денежные переводы мигрантов и трудовых мигрантов рассматривались как решение экономических трудностей. В частности, после обретения независимости наблюдался рост числа людей, мигрирующих из Алжира, и объема денежных переводов из-за рубежа.

**Ключевые слова:** миграция, контроль, безопасность, сотрудничество, трудовые договоры, периоды деятельности, разрешения, свидетельства.

## **ALGERIA'S RELATIONS WITH FRANCE AFTER INDEPENDENCE AND IMPACT ON MIGRATION**

### **ABSTRACT**

*Algeria gained independence in 1962, and these processes occurred as a result of the national liberation wars that lasted from 1954 to 1962. After gaining independence, Algeria faced a number of problems in public administration, politics, and economics. Problems such as restoring the losses of 132 years of colonial rule, unemployment, poverty, and war devastation led to the exodus of 80 percent of Europeans and 30 percent of Algerians. The majority of this exodus was highly educated, consisting of technicians, teachers, doctors, engineers, and small businessmen, who took with them whatever equipment, equipment, capital, and valuable documents they could. 90 percent of Algeria's citizens, including entrepreneurs and intellectuals, left the country. Due to these problems that arose in the early years of Algerian independence, the government encouraged migration. The remittances of migrants and migrant workers were seen as a solution to economic difficulties. In particular, after independence, there was an increase in the number of people migrating from Algeria and the amount of foreign remittances.*

**Keywords:** migration, control, security, cooperation, labor contracts, periods of activity, permits, certificates.

### **KIRISH**

Mustaqillik uchun harakatlar va “Jazoir urushi”ning ilk davrida Fransiyada migratsiyaga ba’zi cheklovlar qo’yildi, ammo bu muhojirlar oqimini to‘xtatmadi,

aksincha 1956-yilda ularning soni 350,000 nafarga yetishiga olib keldi.<sup>1</sup> 1961-yilgacha Fransiyadagi jazoirlar soni 500,000 nafarga yetdi, mustaqillikning dastlabki yilida haftasiga deyarli 70,000 nafar jazoirlar migratsiya qildi va keyingi uch yil davomida ularning miqdori yiliga 40,000 nafarga yetdi.<sup>2</sup> Jazoirlar muhojirlarning mustaqillikning dastlabki yillarida katta miqdorda Fransiyaga ko'chib kelish jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan til, transport, turar-joy kabi muammolarni bartaraf etishda Fransiyadagi jazoirlar diasporasi yordam berdi. Fransiya tomonidan jazoirlar migrantlar ustidan nazorat va politsiya xizmati to'la tashkillashtirilmagan edi. Buning sababi, deport hamda jazolash tartiblari politsiya tomonidan zudlik bilan amalga oshirilmaganligi bilan bog'liq edi. "Hommes et Migration" jurnalida qayd etilgan mutaxassislar fikricha, "turist sifatida yoki boshqa yo'llar bilan kelgan jazoirlar noqonuniy ishchi muhojirlar politsiya nazorati va monitoringdan o'tishmagan, ular boshqa migrantlarga ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanmagan hamda Jazoirga bir taraflama transport orqali qaytgan".<sup>3</sup>

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ushbu tadqiqotda Shimoliy Afrika mintaqasining umumiy hamda Jazoirning yaxlit davlat sifatida tarixini chuqur tahlil qilingan holda xorijiy va mintaqaviy adabiyotlardan foydalanilgan. Jumladan, Castles Stephen, and Mark J. Miller<sup>4</sup>, Philippe Fargues<sup>5</sup>, Hassan Boubakri<sup>6</sup>, Hein de Haas<sup>7</sup> kabilar Jazoir tarixi va migratsiyasini xalqaro va mintaqalar miqyosida tahlil qilgan. Ланда Р.Г.<sup>8</sup>, Michael Sammers<sup>9</sup>, Murial Cohen<sup>10</sup>, Amelia H. Lyons<sup>11</sup>, Kassa Houari<sup>12</sup> kabi tarixshunos olimlar Jazoir davlatining yaxlit tarixini, migratsiyasi, Fransiya bilan munosabatlari kabi mavzularni tadqiq qilgan.

<sup>1</sup> Hein de Haas. North african migration systems: evolution, transformations and development linkages// Zacatecas, México.: Red Internacional de Migración y Desarrollo, 2006, No. 7. – PP. 65-95.

<sup>2</sup> Hein de Haas. North african migration systems: evolution, transformations and development linkages// Zacatecas, México.: Red Internacional de Migración y Desarrollo, 2006, No. 7. – PP. 65-95.

<sup>3</sup> Amelia H. Lyons. French or Foreign? The Algerian Migrants' Status at the End of Empire (1962–1968)// Journal of Modern European History, 2014, No 12:1, P.P. 126-145.

<sup>4</sup> Castles Stephen, and Mark J. Miller. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. - New York.: Palgrave Macmillan, 1993. - 352 p.

<sup>5</sup> Philippe Fargues. Migration in the Arab World, United Nations Expert Group Meeting on International Migration. – Beirut.: European University Institute, 2005. - P. 198.

<sup>6</sup> Hassan Boubakri. Migration in North Africa. – Berlin: Konrad-Adenauer-Stiftung, 2021. – P. 59.

<sup>7</sup> Hein de Haas. North african migration systems: evolution, transformations and development linkages Zacatecas. - México: Red Internacional de Migración y Desarrollo, 2006. - No. 7. – PP. 65-95.

<sup>8</sup> Ланда Р.Г. История Алжира. XX век. - М.: Институт востоковедения РАН, 1999. - 309 с.

<sup>9</sup> Michael Sammers. The Production of Diaspora: Algerian mmigration from colonialism to neo-colonialism(1840-1970). Antipode, University of Liverpool. – Liverpool, 1997, - No. 29:1-. P.P. 32-64.

<sup>10</sup> Murial Cohen. Post-colonial Algerian immigration: Putting down roots in the face of exclusion. Le Mouvement Social. – 2017. – No 258. – P.P. 29 – 48.

<sup>11</sup> Amelia H. Lyons. French or Foreign? The Algerian Migrants' Status at the End of Empire (1962–1968). Journal of Modern European History, 2014.- No 12:1-. P.P. 126-145.

<sup>12</sup> Kassa Houari. Confessions d'un immigré: un Algérien à Paris. – Paris: Lieu Commun, 1988, – 48 p.

Ushbu tadqiqotning metodologik nuqtai nazaridan tahlil qilishda tarixiylik, davrlashtirish, taqqoslash, solishtirish, empirik kuzatuv, intervyu-suhbatlar kabi metodlardan unumli foydalanildi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**


Mustaqillik urushi yillarida migratsiyaga nisbatan qat'iy cheklovlar o'rnatilmagan bo'lsa-da, biroq muhojirlar ustidan mustamlakachilik yillariga qaraganda kuchliroq nazorat o'rnatildi. Migrantlar soni ko'payib borgach, ularning ustidan nazorat o'rnatish, tashkilotlar uchun ularga xizmat ko'rsatish, ma'lumotlar yig'ish qiyinlashib bordi. Shu tariqa migrantlar tomonidan ayrim vaqtlarda ijtimoiy tartibsizliklar keltirib chiqardi. Bu hukumatga 1964-1965-yillarda jazoirliklarga berilgan migratsiyadagi erkinlik imkoniyatlarini cheklash, uzoq muddatga joylashish kabilarda cheklovlar o'rnatish zaruriyatini tug'dirdi.<sup>13</sup> Bu holat jazoirliklar migratsiya shakliga katta ta'sir qilmagan bo'lsa-da, 1964-yilda tuzilgan "Jazoirlik ishchilar milliy departamenti" orqali chegarada qat'iy tekshiruv boshlanishiga olib keldi. Buning oqibatida jazoirliklar uchun Fransiyaga migratsiya qilish murakkablashib bordi. 1965-yilda Jazoir migratsiyasiga o'zgartirish kiritildi, ya'ni ular Fransiyaga migratsiya qilishdan oldin qaytish biletiga ega hamda hisobida 500 frank mablag' bo'lishi lozim edi. Bundan tashqari, yakka turist vizasi ham taklif etilib, muddati 200 haftani tashkil qilgan. Turist sifatida migratsiya qilib, uzoq vaqt ishlash maqsadida bo'lgan muhojirlar xatti harakatlari qonunga xilof deb baholandi va ular ham deport bo'ldi. Ushbu jarayonlar Jazoir migratsiyasi ko'rsatkichiga sezilarli ta'sir qildi. Jumladan, 15 yoshida Fransiyaga borgan jazoirlik yozuvchi Kassa Hauri o'zining memuarida keltirishicha: "Oddiy holga aylangan deportatsiya jazoirlik migrantlar orasida katta tashvishga sabab bo'lgan edi. Shu sababli turli tashkilotlar ro'yxatidan o'tish uchun migrantlar besh kunlab navbatda turishlariga to'g'ri kelgan."<sup>14</sup> Ba'zilar bunday tavakkalli yo'ldan ko'ra boshqa muqobil yo'l tanladi. Xususan, jazoirlik migrant Z. Lamina bilan integratsiya va immigratsiya bo'yicha tarixiy tadqiqotchi Marie Kloudi Blank va og'zaki tarix tadqiqotchisi Rosa Olmos o'rtasida olib borilgan suhbatda u "migratsiya tartiblari va qaytarib yuborilishidan xavfsirab" 1966-yilda Fransiyaga Tunis orqali ketgani keltirilgan.<sup>15</sup> Oqibatda, 1961-1965-yillar orasida Jazoir migratsiya ko'rsatkichida pasayish kuzatildi, jumladan, Jazoir ichki ishlar vazirligi SAMAS Fransiyaga immigratsiya to'g'risida ma'lumot taqdim etgan:<sup>16</sup>

<sup>13</sup> Philippe Fargues. Migration in the Arab World, United Nations Expert Group Meeting on International Migration. – Beirut.: European University Institute, 2005. - P 198.

<sup>14</sup> Kassa Houari. Confessions d'un immigré: un Algérien à Paris. – Paris: Lieu Commun, 1988 – P. 33.

<sup>15</sup> Lamina Z. bilan suhbat. Nanterre: "La Contemporaine collections" to'plami, 2011.

<sup>16</sup> Castles Stephen, and Mark J. Miller. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. - New York.: Palgrave Macmillan, 1993. - P. 87.



Jazoir migratsiyasi murakkablashgani nafaqat erkaklar uchun, balki ayol va bolalarning migratsiya ko‘rsatkichiga ham ta’sir qildi. Mustamlaka davrida jazoirlik ayol va bolalar migratsiyasi boshqa hududlar bilan qiyoslaganda ertaroq boshlangan edi. Biroq, mustaqillikdan so‘ng Fransiya Sog‘liqni saqlash va aholi vazirligi hamda Ichki ishlar vazirligi ayollar va bolalar ko‘chib kelishidan integratsiya sababidan xavfsiradi. Xususan, 1952-yilda 3,500 nafar, 1954-yilda 6,000 nafar, 1962-yilda 25,000 nafar jazoirlik ayollar mavjud edi. Jazoir ijtimoiy xizmatlar tashkiloti xabar berishiga ko‘ra, 1963-yilgacha Fransiyada aniq belgilangan ish joyi va uyi bo‘lmagan ko‘plab oilalar migratsiya qilgan. Mustamlakachilik davridagi uy-joyga ega erkaklar ayol va farzandlari bilan Fransiyada doimiy joylashish imkoniyatiga mustaqillikdan keyin cheklov qo‘yildi. Jazoir uchun ham bu maqbul emas edi, sababi ayollar va bolalarning chiqib ketishi muhojir pul aylanmalari miqdoriga salbiy ta’sir qilar edi. Ichki ishlar va Jazoir ishlari vazirlari Rojer Fray va Lui Joxe 1961-yilda Jazoir oilalarining Fransiyada joylashuvini cheklashni taklif qildi hamda uy-joy sertifikat sharti amalga kiritildi. Ushbu sertifikat Fransiyada joylashish maqsadida bo‘lgan oilalarga beriladi va quyidagi shartlarga muvofiq edi: sertifikatda oila a’zolari soni, oylik maosh miqdori belgilanadi hamda oila a’zolarining ijara uyi oila boshlig‘ining maoshining 15 foizidan oshmasligi lozim, aks holda ushbu sertifikat ularga taqdim etilmaydi hamda ular Fransiyada oilasi bilan joylashishdan mahrum bo‘ladi.<sup>17</sup> 1965-yilda Jazoir ijtimoiy xizmatlar tashkiloti direktori Jak Revoning ta’kidlashiga ko‘ra, Fransiyada Jazoir, Italiya va Polsha xalqining oila ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan.<sup>18</sup>

<sup>17</sup> Murial Cohen. Post-colonial Algerian immigration: Putting down roots in the face of exclusion.// Le Mouvement Social. – 2017. – No 258. – P.P. 29 – 48.

<sup>18</sup> Michael Sammers. The Production of Diaspora: Algerian migration from colonialism to neo-colonialism(1840-1970)// Antipode, University of Liverpool. – Liverpool, 1997, No. 29:1, P.P. 32-64.

1967-yilda Ichki ishlar vazirligi ijtimoiy xizmatlar vaziri Jean-Marsel Jeannery va Ichki ishlar vaziri Rojer Frey uy-joy sertifikatiga o'zgartirish kiritdi. Ularning keltirishicha, "jazoirliklar kichik hajmdagi uylarda katta miqdorda oilaviy yashashlari Fransiya demografiyasi va ijtimoiy hayotini havf ostiga qo'ydi".<sup>19</sup> Oqibatda, uy sharoiti, oila a'zolari miqdori hamda boshqa masalalarga aniqlik kiritildi, xususan, farzandlari bor ota-onalar yashash uchun qulay bo'lgan ikki xona uyda istiqomat qilishi lozim. Agar ishchi muhojirlar farzandlari bilan birga ota-onasini ham olib kelish niyatida bo'lib, talab darajasidagi uyda istiqomat qilmasa, ularga uy-joy sertifikatini berilmagan. Qonunan ular yurtiga qaytishi lozim, ammo ular sharoitsiz chekka hududlardagi turar-joylarda qolib, Fransiyada yashashni davom ettirgan.<sup>20</sup> Hukumat ayollar va bolalarni Fransiyada joylashishiga to'sqinlik qilsa ham 1970-yillarning oxirida 100,000 ta jazoirlik oilalari shakllandi. Jazoirlik migrantlar soni 800,000 nafardan oshdi hamda ularning 25 foizi ayollardan va 30 foizi bolalardan iborat edi. Bu miqdor nafaqat ko'chib kelayotgan muhojirlar sabab, balki tabiiy ko'payish oqibatida ham ro'y berdi. "Fransiya aholi va migratsiya departamenti" ma'lumotiga ko'ra "hozirgi 600,000 nafar Fransiyadagi jazoirliklarni kelajakda, yangi migrantlar miqdori kabi bo'lmasa-da, mutanosib ravishda ko'payishini inobatga olmaslik mushkul, 1966-yildan beri bu o'rta hisob ko'rsatkichida, lekin ularning tug'ilish darajasi baland."<sup>21</sup> Xususan, 1946-1966-yillarda Fransiyada taxminan 130,000 nafar bolalar dunyoga kelgan hamda ularning katta qismi 1980-yillarda Fransiyada qolgan va o'zlarini oilalariga asos solgan. Fransiyada media orqali ham oilalar bilan ko'chib kelish hamda integratsiya masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi. Radio eshittirishlari va teleko'rsatuvlar, jumladan "Fransiya Radiosi" shanba kuni fransuz, arab va berber tilida efir olib borgan. Ularda go'yoki "jazoirliklar" bilan suhbatlar o'tkazilgan hamda Fransiyada oila bilan yashash qiyinchiliklari haqida aytilgan. Suhbatlar jazoirliklarning uy-joy, mutanosib ish topmasdan oila a'zolari bilan qiyinchilikka uchrashlari, ma'naviy va psixologik zararlari mazmunida amalga oshirilgan.<sup>22</sup>

Biroq, 1968-yilgi shartnomaning ham jazoirliklar uchun o'ziga xos jihatlari mavjud edi. Ilgarilari jazoirliklardan Fransiyada yashashi uchun faqatgina pasportning o'zi talab qilinardi (ko'p hollarda migrantlarga pasport bo'lmasa ham chora ko'rilmagan), shartnoma endi jazoirliklarga Fransiyada yashashlari uchun

<sup>19</sup> Amelia H. Lyons. French or Foreign? The Algerian Migrants' Status at the End of Empire (1962–1968)// Journal of Modern European History, 2014, No 12:1, P.P. 126-145.

<sup>20</sup> Ланда Р.Г. История Алжира. XX век. М.: Институт востоковедения РАН, 1999, - С. 171..

<sup>21</sup> Murial Cohen. Post-colonial Algerian immigration: Putting down roots in the face of exclusion.// Le Mouvement Social. – 2017. – No 258. – P.P. 29 – 48.

<sup>22</sup> Amelia H. Lyons. French or Foreign? The Algerian Migrants' Status at the End of Empire (1962–1968)// Journal of Modern European History, 2014, No 12:1, P.P. 126-145.

pasport bilan birga ruxsatnomalarga ham ega bo'lish majburiyatini yukladi. Ushbu ruxsatnomada migrantning Jazoir dan kelgan hududi, Fransiyadagi yashash manzili, ish sohasi hamda Fransiyada yashash muddati belgilanar edi. Ushbu ruxsatnoma 3-5 va uzog'i bilan 10 yilga berilar, migrantlarga Jazoir va Fransiya o'rtasida erkin harakatlanish imkonini yaratgan. Natijada, Jazoirga borib-qaytish miqdori 35-40 foizga ko'tarildi, ushbu ruxsatnoma taqdim etilgunicha ko'plab jazoirliklar Fransiyani ishidan ayrilib qolmaslik sababidan tark etmagan. Ruxsatnoma orqali Fransiya hukumati Jazoir migrantlarini oson nazorat qilgan, migrantlar esa ko'plab ijtimoiy hamda siyosiy huquqlarga ega bo'lgan.<sup>23</sup> Davlat boshqaruvi, partiyalarga birlashish kabi ba'zi siyosiy huquqlarda cheklovlar bo'lsa-da, xizmat ko'rsatishda jazoirliklar deyarli fransuzlar bilan teng ko'rilar edi. Jazoirliklar boshqa migrantlar bilan solishtirilganda, yuqori maoshli va malakali soha vakillari bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib, ular muammosiz huquqshunos, shifokor, sa'natkor va xususiy tabirkor kabi kasblarni egallay olgan.

1960-yillarda jazoirliklar Fransiyadagi eng yirik xorijiy fuqarolar ko'rsatkichini tashkil qilgan, ular rivojlangan industrial va yirik sanoat markazlarida joylashgan edi. 1968-yilda Fransiyadagi xorijiy muhojirlar sonining jazoirliklar ko'rsatkichi 25 foizdan 1975-yilda 35 foizga o'zgardi.<sup>24</sup> Marokash va Tunis bilan qiyoslaganda, jazoirlik muhojirlarning sonida kam miqdorda bo'lsa-da ayol ishchi vakillari mavjud edi, bundan tashqari qisqa shartnoma muddatidan ko'ra uzoq muddatli joylashuv hamda sanoat, metallurgiya, qurilish, avtomobilsozlik, xizmat ko'rsatish kabi ma'lum sohalarda mehnat qilishlari ularning o'ziga xosligini ta'minlagan.<sup>25</sup>

## **XULOSA**

XX asrning 60-yillaridagi migratsiya shakli jazoirliklar uchun imkoniyatlar va ayrim qiyinchiliklar bilan o'tdi. Dastlabki yillarda erkak ishchilar jamoasi tomonidan mehnat migratsiyasi amalga oshirilgan bo'lsa, keyingi yillarda migrantlar oila a'zolari bilan uzoq muddatlarga joylashishga intildi. XX asrning 60-70-yillaridagi migratsiyaning o'ziga xos tomoni muhojirlarning Fransiyada joylashishga erishib, fuqarolik uchun harakat qilishlari bilan izohlanadi. "Jazoir fuqarolar urushi" va mustaqillikdan so'ng Fransiya jazoirliklar migratsiyasiga turli cheklovlar o'rnatib boshladi, ammo boshqa hududlar, xususan, Marokash va Tunis migratsiyasini qo'llab quvvatladi. Jazoir dan oilalar ko'chib kelishi, ayollar va bolalarning mavjudligi uning diasporasi rivojlanishiga va turli jamg'arma hamda tashkilotlar faoliyat yuritishiga sababchi bo'ldi. Natijada, hukumat migratsiyaga to'siqlar o'rnatib,

<sup>23</sup> Castles Stephen, and Mark J. Miller. *The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World.* - New York.: Palgrave Macmillan, 1993. - P. 87.

<sup>24</sup> Hassan Boubakri. *Migration in North Africa.* - Berlin: Konrad-Adenauer-Stiftung, 2021. - P. 59.

<sup>25</sup> Philippe Fargues. *Migration in the Arab World,* United Nations Expert Group Meeting on International Migration. - Beirut.: European University Institute, 2005. - P. 198.

murakkablashtirishiga qaramay, diaspora tashkilot hamda jamg‘armalari muhojirlarga ko‘chib kelib, joylashishiga va ish topishiga yordam berdi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Amelia H. Lyons. French or Foreign? The Algerian Migrants’ Status at the End of Empire (1962–1968). *Journal of Modern European History*, 2014.- No 12:1-. P.P. 126-145.
2. Castles Stephen, and Mark J. Miller. *The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World.* - New York.: Palgrave Macmillan, 1993. - 352 p.
3. Hein de Haas. North african migration systems: evolution, transformations and development linkages Zacatecas. - México: Red Internacional de Migración y Desarrollo, 2006. - No. 7. – PP. 65-95.
4. Hassan Boubakri. *Migration in North Africa.* – Berlin: Konrad-Adenauer-Stiftung, 2021. – P. 59.
5. Kassa Houari. *Confessions d’un immigré: un Algérien à Paris.* – Paris: Lieu Commun, 1988, – 48 p.
6. Murial Cohen. Post-colonial Algerian immigration: Putting down roots in the face of exclusion. *Le Mouvement Social.* – 2017. – No 258. – P.P. 29 – 48.
7. Michael Sammers. *The Production of Diaspora: Algerian mmigration from colonialism to neo-colonialism(1840-1970).* Antipode, University of Liverpool. – Liverpool, 1997, - No. 29:1-. P.P. 32-64.
8. Lamina Z. bilan suhbat. Nanterre: “La Contemporaine collections” to‘plami, 2011.
9. Philippe Fargues. *Migration in the Arab World, United Nations Expert Group Meeting on International Migration.* – Beirut.: European University Institute, 2005. - P. 198.
10. Ланда Р.Г. *История Алжира. XX век.* - М.: Институт востоковедения РАН, 1999. - 309 с.